



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI
O'ZBEKISTON RESPUBLİKASI FANLAR AKADEMIYASI
O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

**"G'AFUR G'ULOM IJODIY
MEROSINING O'ZBEK VA JAHON
ADABIY-ESTETIK TAFAKKURI
TARAQQIYOTIDAGI O'RNI"**

mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy anjuman

TO'PLAMI

Toshkent 20-sentabr, 2023-yil

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOZUVCHILAR UYUSHMASI

**"G'AFUR G'ULOM IJODIY MEROSINING O'ZBEK VA JAHON
ADABIY-ESTETIK TAFAKKURI TARAQQIYOTIDAGI O'RNI"**

**mavzusida xalqaro ilmiy anjumani
to'plami**

Toshkent – 2023

Tahrir hay'ati:

**A.Ulug'ov
D.Xoldorov
O.To'laboyev
O.Usmonov
U.Rasulova
R.To'laboyeva**

Mas'ul muharrir:

prof. Bahodir Karimov

To‘plamdan xalqaro konferensiya materiallari o‘rin olgan. Maqolalarda filologiya ilmining turli sohalariga oid ilmiy kuzatishlar jamlangan bo‘lib, mazkur sohaga oid barcha mutaxassislarga mo‘ljallangan.

Парфи қатағон қурбонлари бўлмиш Фитрату Чўлпон, Қодирию Усмон Носирларнинг нафақат бадиий сиймосини яратган, балки уларнинг юрт истиқоли ва миллат истиқболи билан боғлиқ ғояларини ҳам муносиб давом эттирган ижодкор эди.

G‘AFUR G‘ULOM VA MUQIMIY SHE’RIYATI MATNI

Qo‘ldosh PARDAYEV
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Maqolada akademik G‘afur G‘ulomning Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyl nazmiy asarlari matniga oid tadqiqotlari xususida mulohaza bildirilgan. Ijodkorning turli yillarda amalga oshirgan Muqimiyl asarlar to‘plamidagi she’riy asarlarning tasnifi va matn xususiyatlari tadqiq etilib, G‘afur G‘ulomning muqimiylshunoslik rivojiga qo‘shtgan hissasi haqida ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: janr, bayoz, qo‘lyozma manba, she’r, matn, davr, maqola, asliyat, joriy nashr, adabiy muhit, shoir, mumtoz adabiyot.

Abstract: The article comments on academician Gafur Ghulam’s research on the text of Muhammad Aminkhoja Muqimi’s poetic works. The classification and text features of the poetic works in the collection of Muqimi works made by the artist in different ears were studied, and scientific and theoretical conclusions were made about Gafur Ghulam’s contribution to the development of muqimi studies

Key words: genre, genre, manuscript source, poem, text, period, article, original, current edition, literary environment, poet, classical literature.

XX asr jahon va o‘zbek adabiy – estetik tafakkuri taraqqiyotida akademik G‘afur G‘ulom ijodi muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodkor nafaqat atoqli shoir va nosir, balki zabardast adabiyotshunos olim, hozirjavob munaqqid ham edi. G‘afur G‘ulomning xalq og‘zaki ijodiga, mumtoz adabiyotimiz tarixiga, zamonaviy o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga, o‘zaro adabiy ta’sir va an’analarga doir qarashlari, kuzatuv va xulosalari adabiyotshunosligining dolzarb masalalariga bag‘ishlangan.

G‘afur G‘ulom O‘zbek mumtoz adabiyotida Alisher Navoiy, Lutfiy, Bobur, Ogahiy, Mashrab, Nodira, Muqimiyl, Furqat kabi ko‘plab ijodkorlarning boy meroslarini oddiy o‘quvchi sifatida emas, balki ham shoir, ham adib, ham olim sifatida butun hayoti davomida o‘rgandi. Mumtoz adabiyotimizning hayotbaxsh an’analarini o‘rganish, tadqiq etish va ulardan ijodiy foydalanishda G‘afur G‘ulom o‘z faoliyati davomida yuksak darajada fidoyilik ko‘rsatdi. Shu jihatdan, G‘afur G‘ulom ijodini adabiyotshunoslik va matnshunoslik kontekstida o‘rganish oldimizda turgan dolzarb vazifalardandir.

G‘afur G‘ulom Muqimiy hayoti va ijodini o‘rganish, ayniqsa, asarlarini qo‘lyozma va toshbosma manbalar asosida nashrga tayyorlash ishiga katga hissa qo‘shti. U Muqimiy vafotiga 35 yil to‘lishi munosabati bilan 1938-yili Toshketnda “Muqimiy bayozi” deb nomlangan Muqimiy “Asarlar to‘plami”ni nashr ettirdi. To‘plam lotin yozuvida bo‘lib, izohli ko‘rsatkich va lug‘at tuzilgan. Kirish qismida N.Ostromov ma'lumotiga asosida shoir haqida qisqacha tezis berilgan. To‘plamda shoirning 800 misradan iborat bo‘lgan 27 ta turli janrlarga oid she’rlari bosilgan. Ulardan: 11 tasi hajviy, 1ta “Sayohatnoma” (Qo‘qondan Isfaraga), 15 ta lirik asarlardir. To‘plamda shoir asarlarining juda kam berilishiga qaramay, she’rlar matni ancha puxta amalga oshirilganini ta‘kidlash kerak.

1942-yilda chop etilgan Muqimiy “Tanlagan asarlar”i ham Toshkentda G‘afur G‘ulom tomonidan nashrga tayyorlangan. Bu to‘plam 1938-yildagi to‘plamga nisbatan Muqimiy asarlarini ko‘proq o‘z ichiga olishi bilan ajralib turadi. Kitobda Uyg‘unning “Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy” sarlavhali maqolasi bosilgan. Uyg‘unning bu maqolasi Muqimiyni o‘rganish masalasiga bag‘ishlangan o‘zbek tilidagi birinchi ish hisoblanadi. Ammo maqolada sho‘ro davri mafkurasi nuqtai nazaridan babs talab fikrlar ham uchraydi. Shu to‘plamning oxirida G‘afur G‘ulom o‘zining “Muqimiy va Muhyi” sarlavhali maqolasini joylashtirgan. Maqolada muallif “Nest” radifli g‘azallar mushoarasiga to‘xtaladi. Ammo maqolaga sinchiklab qaralsa, bu ikki shoirning ma'lum muddat bo‘lib o‘tgan ijodiy babs-munozaralari tahlil qilingan. Ta‘kidlash joizki, aslida esa bu ikki shoirning uzoq muddat mobaynida ijodda hamfikr bo‘lganini, bir-birining bilim va iste’dodini e’zozlab yashaganini, bir-biriga tatabbular, taxmislar qilganini keyingi tadqiqotlar ko‘rsatmoqda [Yusupov Sh., 2003; 122].

To‘plamda Muqimiyning 81 ta she’riy asari berilgan. Ulardan 30 tasi g‘azal, 5 ta murabba, 19 tasi muxammas, 21 tasi hajviy, bulardan tashqari, “Sayohatnoma” (Qo‘qondan Farg‘onaga, Qo‘qondan Shohimardonga, Qo‘qondan Isfaraga) va uchta she’riy maktub ham berilgan. To‘plam xususida O.Jo‘rboev quyidagicha yozadi: “...G‘afur G‘ulom Muqimiy asarlarini mavzuiga ko‘ra ilk bor tasnif ham qilgan. U nashrga tayyorlagan to‘plamlarda shoir she’rlari o‘z yo‘nalishlarida saralab berilgan. Masalan, u 1942-yilgi “Tanlangan asarlar”ida lirik va hajviy asarlar deya bo‘lib, har bir she’rni nomlaydi. Bu an’ana Muqimiy asarlarining keyingi noshirlari tomonidan ham davom ettirilgan” [Jo‘rboev O., 2003; 110].

Bu to‘plamdagagi ba’zi she’rlar ham davr mafkurasiga ko‘ra qisqarishlarga uchragan bo‘lsa-da, ammo ba’zi she’rlar boshqa muqimiyyunos olimlar nashrlariga qaraganda bandlari to‘liq berilgan. Jumladan, Muqimiyning Zavqiy g‘azaliga taxmis qilingan “Veksil” sarlavhali muxammasining bir bandi Muqimiy asarlar to‘plamidan ongli ravishda tushirib qoldirilgan. Bu band esa G‘afur G‘ulomning 1942-yilgi Muqimiy “Tanlangan asarlar”i to‘plamida to‘liq berilgan:

*To o‘tdi Rusiyoga Farg‘onaning xiroji,
Vojgun bo‘lub yiqildi xonlarni taxtu toji,
Har lahzai digar kun g‘aybi falak mizoji,
Qoldi rivoj olmay Xo‘qand zarb royiji,
Bo‘ldi zaif islom, kofir zamoni chiqdi.*

Muqimiy “*Bo ‘ldi zaif islam, kofir zamoni chiqdi*”, – deya kishilarning o‘z dinidan, shariatidan toboro uzoqlashishi, natijada jamiyatda munofiqlik, yulg‘ichlik va poraxo‘rlik kabi illatlarning ko‘payib ketayotgani shoirning haqli e’tiroziga sabab bo‘ladi.

Aslida, bu muxammasning yozilishiga sabab nima edi? Ma’lumki, chor Rossiyasi o‘zbek xalqi boshiga qanchadan-qancha og‘ir kunlarni soldi. Shunday ekan, bu kulfatlar nafaqat tarixchilar, balki davr shoirlari asarlarida ham haqqoniy tasvirlandi. Muqimiyning mazkur muxammasi chor mustamlakachilarining o‘z manfaati yo‘lida yurgizgan pul islohoti haqida edi. Nashrdan tushirib qoldirilgan misralarda chor mustamlakasi o‘rnatgan qonun-qoidalarga, islomiy qoidalarning zaiflashuviga qarshi norozilik, istibdodga isyon ruhi aks etgan edi. Umuman, muxammasda xalq pulining iste’moldan chiqishi, natijada ulusning talanishi, narxnavoning oshishi, savdo-sodiq ishlaridagi tartibning buzilishi, boshqacha aytganda, Turkistonning iqtisodiy inqirozi qalamga olingan edi.

Adabiyotshunos Abdurashid Abdug‘afurov ta’kidlashicha, “...Zavqiy g‘azalining bosh mavzui veksil bo‘lman (unda biror imo-ishorani ham, hatto bu so‘zni ham uchratmaymiz), va demak (taxmis bog‘lash prinsiplariga rioya qilgan holda), Muqimiyning taxmisining ham asosiy mazmuni batamom boshqadir. Zavqiy g‘azalida ham, Muqimiyning unga bog‘lagan taxmisida ham Farg‘ona iqtisodiy hayotida katta voqeа bo‘lgan pul islohoti va uning oqibatlari tasvir etiladi. Shunga ko‘ra, noshirlar tomonidan asarga berilgan nomni o‘zgartirish, muxammas mazmuniga to‘la muvofiq tushadigan yangi sarlavha qo‘yish zarur” [Abdug‘afurov A., 1976; 22]. Ko‘rinadiki, bu bandning nega muqimiyyunoslар nashrlaridan tushirib qoldirilgani o‘z-o‘zidan ayon.

G‘afur G‘ulom tomonidan 1942-yilda nashr etilgan Muqimiy “Tanlangan asarlar”idagi bu kabi she’rlarning matni ancha puxta tayyorlanganini Muqimiy dastxat bayozlari matni bilan qiyoslaganda ko‘rish mumkin.

1943-yilda birinchi marta rus tilida Toshkentda Muqimiy “Tanlangan asarlar”i nashr etildi. Shoир U.Ushakov tarjimasida tuzilgan bu to‘plam “Lirika i satira” deb nomlanadi. Bu to‘plamni tuzishda yuqoridagi tilga olingan 1942- yildagi o‘zbekcha to‘plam asosga olingan. To‘plam Uyg‘unning so‘zboshisi bilan chiqqan. Uyg‘un katta bo‘lman bu maqolasida Muqimiy adabiy merosiga umumiy ma’lumot berish bilan cheklanadi. To‘plamda Muqimiyning 31 ta she’riy asari kiritilgan.

Muqimiy asarlaridan nashr qilingan kitoblarning uchtasi (1938, 1942, 1953) G‘afur G‘ulom tomonidan tayyorlangan. Shuningdek, rus tilida ikki marta (1943, 1953) Toshkentda, bir marta (1950) Moskvada “Lirika i satira Mukimi” nomi bilan nashr qilingan materiallar ham G‘afur G‘ulom nashrga tayyorlagan to‘plamlardan olingan.

Muqimiyning “*Aqlu hush uchdi boshimdin, ey pari, devonaman*” misrasi bilan boshlanuvchi mashhur g‘azali baytlari G‘afur G‘ulom nashrlarida dastlabki nashr sifatida to‘liq berilgan. Bu g‘azal matni haqida G‘ulom Karimov G‘afur G‘ulom tadqiqotiga tanqidiy munosabat bildirib, bunday yozgan edi: “Masalan, “Aql hush” sarlavhali mashhur lirik she’r G‘afur G‘ulomning hamma nashrlarida (1938, 1942, 1953 yil nashrlari) sakkiz baytdan iborat bo‘lgani holda eng mo‘tabar

“Katta devon”da (7521 raqamli qo‘lyozma bayoz ko‘zda tutilmoqda) bu she‘r 6 baytdan iborat” [Karimov G., 1957; 34].

To‘g‘ri, mazkur g‘azal 7521, 1325 raqamli Muqimiyl dastxat bayozlarida 6 bayt holda uchraydi. 9309 raqamli Muqimiyl dastxat bayozida (169^b – sahifa) esa g‘azal hajmi 8 baytni tashkil etgan. Muqimiyl keyinchalik yana ikki bayt qo‘shib, g‘azal matnini badiiy jihatdan takomillashtirgan. Tahrir jarayonida qo‘shilgan ikki bayt quyidagicha:

*Xoma mujgon, ko‘z qarosidin yozib rozi dilim,
Arzae qildim eshit, ma'yusu mushtoqonaman.*

*Navbatijomim to‘la quyg‘il karamdin, soqiyo,
Har qadamda to qilay yuz lag‘zishi mastonaman.*

Ko‘rinadiki, keyingi qo‘shilgan ikki bayt har jihatdan g‘azal mazmunini boyitgan va yuqoridagi baytlarda ifodalangan fikrning mantiqiy izchilligini ta‘minlagan. Bundan ma'lumki, G‘afur G‘ulom nukdodon matnshunos sifatida Muqimiyning dastxat bayozlari asosida she'rlarni nashrga tayyorlagan.

G‘afur G‘ulomning “Muqimiyl maktublari” [G‘afur G‘ulom., 1941; 112] sarlavhali maqolasida Muqimiyl nasriy maktublari haqida so‘z yuritilib: “...Muqimiyning bu maktublari, uning tarjimai holida bizga aniq bo‘lmagan ko‘p faktlarni ravshanlashtiradi”, – deya yangi ma'lumotlarni keltiradi. Ta‘kidlash joizki, Muqimiyl asarlarini yig‘ish va nashr etishda G‘afur G‘ulomning xizmatlari katta bo‘ldi. Adabiyotshunoslard Otabek Jo‘raboevning “G‘afur G‘ulom – muqimiylshunos” [Jo‘raboev O., 2003;34], Islom Yoqubovning “Muqimiyl va G‘afur G‘ulom” [Yoqubov I., 2003;75], sarlavhali maqolalarida G‘afur G‘ulomning muqimiylshunoslikka qo‘shgan hissasi xususida qimmatli fikrlar bildirilgan.

Umuman olganda, G‘afur G‘ulom Muqimiyl ijodining ilk tadqiqotchisi sifatida Muqimiyl asarlarini birlamchi manbalar asosida puxta nashrga tayyorladi. U Muqimiyl asarlar to‘plamidan [G‘afur G‘ulom., 1938; 1942; 1953] tashqari, “Mulla Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyl” (1938), “Muqimiyl maktublari” (1941), “Muqimiyl va Muhyi” (1942), “Muqimiyl”, “Demokrat shoir” (1953) singari bir necha maqolalar yozdi. Bu maqolalar nafaqat Qo‘qon adabiy muhiti va Muqimiyl ijodi, balki XIX asr ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyoti tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Абдуғафуров А. Муқимий сатираси. – Т.: Фан, 1976. – Б.22.
2. Жўрабоев О. Fafur Fулом–муқимиийшунос. //Ўзбек тили ва адабиёти.– Тошкент, 2003. №2. –Б.34.
3. Каримов Ф. Муқимиий ҳаёти ва ижодини ўрганиш тарихидан. Ўрта Осиё Давлат университетининг илмий асарлари. Ўзбек адабиёти. Янги серия, 15 китоб. – Т.: ЎзФА нашриёти, 1957. – Б.34.
4. Юсупов Ш. Тарих ва адаб бўстони. – Т.: Маънавият, 2003. – Б.75.
5. Ёқубов И. Муқимиий ва Fafur Fулом. Fafur Fулом ва давр. – Т.: 2003. – Б.75.
6. Fafur Fулом. / Қизил Ўзбекистон. – Тошкент, 1941, 8-май.– Б.75.

7. Faafur Fulom. Muqimiy baezi. (Asrlar t'oplami). – T.: UzFA nashrieti, 1938; Muqimiy. (Tanalangan asarlari) – T.: UzFA nashrieti, 1942; Muqimiy. (Tanalangan asarlari) – T.: UzFA nashrieti, 1953.

“ШУМ БОЛА” ҚИССАСИДА “МИНГ БИР КЕЧА” АНЬНАСИ: ФОЛЬКЛОР СТИЛИЗАЦИЯСИ

**Марҳабо ҚўЧҚОРОВА
ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори
институти етакчи илмий ходими,
филология фанлари доктори**

“Шум бола” қиссаси Faafur Fulom насрининг гултожи ҳисобланади. Қисса кўплаб йирик ва ёш тадқиқотчиларни қизиқтириб, қайта-қайта таҳлил этиб келинади. С.Мамажонов, Б.Назаров, F.Мўминов, С.Мелиев каби олимлар мазкур қисса бадиияти, фольклор ижодий анъаналарининг асарда маҳорат билан акс этгани, комик катарсис масалаларини ўрганишган. “Шум бола” ҳар хил даврлар ва тузумларда ўзининг янги бадиий қиёфасини намоён эта олган, янги маъно қатламларини очаверадиган мумтоз замонавий қиссадир.

“Шум бола” ёзувчининг ўзи эътироф этганидек, аввало, “автобиографик характерга” эга бўлгани ҳолда ҳалқ эртакларига хос саргузаштлилик, аччиқ кулгининг ёрқин бадиий ифодасини ўзида теран акс эттирган. “Шум бола”нинг бош қаҳрамони туркий ҳалқлар адабиётида кенг тарқалган латифа жанрининг машҳур образи Насриддин Афандини ҳам эслатиб юборади. Қиссага нақат ўзбек ҳалқ эртаклари, латифалари, балки, туркий ҳалқлар, қолаверса, Шарқ ҳалқлари оғзаки ижодига хос сайёр сюжетлар ниҳоятда катта маҳорат билан сингдирилган. Шу ўринда ўзбек адабиётида “фольклоризмлар” масаласини тадқиқ этган адабиётшунос F.Мўминовнинг қуидаги иқтибосини келтирамиз: “Faafur Fulom “Шум бола” повести воқеаларига оҳангдош “Ношуд бола”, “Тум сагирлитим” эртакларининг сюжетини туркман ҳалқ эртакларида учраттанини айтади, яна “Шум бола”да “Минг бир кеча”даги “Хўқиз, эшак ва бой дехқон ҳикояси”ни эслатувчи эпизодлар ҳам мавжуд”²⁸. Олим тўғри таъкидлаб кўрсатганидек, “Шум бола” қиссасида араб ҳалқ эртаклари “Минг бир кеча”нинг сайёр сюжет ва мотивлари асар композициясига синтез қилинган. Жумладан, “Минг бир кеча” эртагининг бош қаҳрамонларидан бири шахзода Шаҳриёр ҳар кеча бир қизга уйланиб, ўлдиравергач, уч йилга етмай мамлакатда қиз қолмайди. Ана шунда икки қизи, яъни Шаҳризод ва Дунёзоднинг отаси бўлган Вазир қизига “Хўқиз, эшак ва бой дехқон ҳикояси”ни сўзлаб беради²⁹. Айнан шу эртак сюжети “Шум бола” қиссасининг бир саҳна композицияси уйқаш келади. Бу саҳна машҳур қиссанинг III бўлимида учрайди. “Минг бир кеча”даги “Хўқиз, эшак ва бой дехқон

²⁸ Мўминов F. Ўзбек совет адабиёти тараққиётида фольклорнинг ўрни. – Тошкент: Фан, 1985. - Б. 48.

²⁹ Хўқиз, эшак ва бой дехқон ҳикояси /Араб эртаклари. Минг бир кеча. 1 -жилд. 1-45 кечалар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б. 17-22.

MUNDARIJA

Баҳодир КАРИМОВ. “ШУМ БОЛА”НИНГ ФАСОҲАТИ.....	4
Абдулла УЛУГОВ. ЮҚСАҚ ШЕЪРИЯТ ЖОЗИБАСИ.....	11
Almaz ŪLVİ BİNNATOVA. QAFUR QULAM VƏ AZƏRBAYCAN (G'AFUR G'ULOM VA OZARBAYJON).....	31
Zaynabidin ABDIRASHIDOV. MUSTAQILLIK DAVRIDA G'AFUR G'ULOM İJODINING O'RGANILISHI MUAMMOLARI.....	36
Damin TO'RAYEV, Obitjon KARIMOV. O'ZBEKNING CHIN MA'NODAGI O'KTAM SHOIRI.....	46
Рано ИБРАГИМОВА. ЁЗИШМАЛАРДА АКС ЭТГАН ФАФУР ГУЛОМ ПОРТРЕТИ.....	50
Shoira AXMEDOVA. G'AFUR G'ULOM MAKTUBLARIDA QALB VA QIYOFA UYG'UNLIGI.....	56
Шавкат ҲАСАНОВ, Гулбахор ЭРНАЗАРОВА. ФАФУР ГУЛОМ ШЕЪРИЯТИДА ВАКТ ФАЛСАФАСИ.....	60
Умида РАСУЛОВА. ФАФУР ГУЛОМНИНГ ПОЭТИК МАҲОРАТИ.....	66
Дилрабо ҚУВВАТОВА. ФАФУР ГУЛОМ ЛИРИКАСИДА ФИКР ВА ТУЙҒУ УЙҒУНЛИГИ.....	71
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ. ФАФУР ГУЛОМ ВА ҚОЗОҚ АДАБИЁТИ.....	75

Дилмурод ХОЛДОРОВ. ҒАФУР ҒУЛОМНИНГ УСЛУБИЙ ЎЗИГА ХОСЛИГИ.....	76
Баҳодир РАҲМОНОВ. ҲАМИД ОЛИМЖОННИНГ БАХТ ФАЛСАФАСИ.....	80
Санобар ТЎЛАГАНОВА. “ШУМ БОЛА” ҚИССАСИ ЁЗИЛИШИДАГИ ИЖТИМОИЙ ОМИЛЛАР.....	85
Fizuli Nəcməddin oğlu MUSTAFAYEV. KİNO DİLİNDE SAMİTLƏRİN YERİ VƏ İŞLƏNMƏ MƏQAMLARI HAQQINDA.....	92
Олим ОЛТИНБЕК. РАУФ ПАРФИ ИЖОДИДА ҚАТАГОН ҚУРБОНЛАРИ СИЙМОСИ.....	101
Qoʻldosh PARDADEV. GʼAFUR GʼULOM VA MUQIMIY SHEʼRIYATI MATNI.....	106
Марҳабо ҚўЧҚОРОВА. “ШУМ БОЛА” ҚИССАСИДА “МИНГ БИР КЕЧА” АНЬАНАСИ: ФОЛЬКЛОР СТИЛИЗАЦИЯСИ.....	110
Исмоил САИФНАЗАРОВ, Лутфулла ИЛҲОМЖОНОВ. МАЪРИФАТГА ТАШНА СУЛОЛА.....	114
Nasiba ABDULLAYEVA. GʼAFUR GʼULOMNING ESTETIK QARASHLARI.....	120
Bashorat JAMILOVA, Mohigul QAHHOROVA. JAHON VA OʼZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA SAYOHAT,SARGUZASHT MOTIVINING UYGʼUN TAMOYILLARI.....	123
Nodira SOATOVA. GʼAFUR GʼULOM IJODIDA FOLKLOR UNSURLARI.....	129
Рухсора ТЎЛАБОЕВА. ҒАФУР ҒУЛОМ ИЖОДИДА БОЛА ОБРАЗИ.....	133
Obidaxon FAYZULLAYEVA. HAYOT VASFİ VA POETİK MUSHOHADAKORLIK.....	136